

USTRUSHONANING NUROTA TOG' TIZMASI TRANZIT SAVDO
YO'LI.

Abdushukurova Iqbol Kuchkarovna

GulDU "Tarix" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ustrushona (hozirgi sharqiy Farg'ona vodiysi) va Nurata tog' tizmasi o'rtasidagi tranzit savdo yo'li ilk o'rta asrlarda geografik sharoitlardan samarali foydalanib rivojlangan. Bu yo'l Amudaryo vodiysidan O'sh va Tojikiston orqali Farg'ona vodiysiga boruvchi eng qisqa yo'ldir. Xaridorlar va savdogarlar Buxoro, Samarqand hamda Xorazm markazlaridan chiqib, Nurata tog'lari bo'ylab o'tayotganda narsalarini chodinga, ipak, shira, qimmatbaho tosh va ziravor mahsulotlari kabi turli tovarlar bilan ta'minlagan. Shu yo'l orqali Sog'diyona va Xorazm savdogarlari Ustrushonaga yetib, mahalliy paxta, qimmatbaho tosh, metall buyumlar va cho'l aholisi tomonidan ishlab chiqarilgan qandolatchilik mahsulotlarini olib qaytarishgan. Nurata tog'lari yo'li qiyin tog'lik sharoitiga qaramay, yo'l ustidagi qishloqlar, qarorgohlar va posullarning (safargoh) mavjudligi savdogarlar uchun dam olish va xavfsiz harakatlanish imkoniyatini yaratgan. Bu marshrutning ahamiyati shundaki, u nafaqat iqtisodiy almashinuvni jadallashtirgan, balki madaniy va diniy ta'sir almashinuviga ham hissa qo'shgan: ziyoratchilar va ilohiyotchi sayyohlar bu yo'l orqali Hindiston, Xitoy va Fors hududlaridan olib kelingan diniy g'oyalarni va hunarmandchilik an'alarini Ustrushonaga yetkazgan. Shu jihatdan, Nurata tog' tizmasi orqali o'tayotgan tranzit savdo yo'li O'rta Osiyoda Silk yo'lining muhim bo'g'ini sifatida tarixiy ahamiyat kasb etgan.*

Kalit so'zlar. *Ustrushona, Nurata tog' tizmasi, tranzit savdo yo'li, ilk o'rta asr, Amudaryo vodiysi, Ipak yo'li, savdo-iqtisodiy almashinuv, qishloq posullari, ziyoratchilar, madaniy ta'sir*

Abstract. *In the Early Middle Ages, the transit trade route connecting Ustrushona (in the eastern Ferghana Valley) with the Nurata mountain range emerged as a vital corridor for caravans traveling between the Amu Darya basin and Ferghana. This route served as the shortest overland path linking Bukhara, Samarkand, and Khwarezm centers to Ustrushona. Merchants transported high-value commodities such as silk, gems, spices, and wine along the Nurata passes, exchanging them in Ustrushona for local products including cotton, semi-precious stones, metalware, and confectionery items produced by the desert nomads. Despite the challenging terrain of the Nurata peaks, the presence of roadside villages,*

caravanserais, and waystations provided crucial respite and security for traders. Beyond facilitating economic exchange, this corridor also fostered cultural and religious transmission: pilgrims and scholars traveling from India, China, and Persia brought religious ideas and artisanal techniques to Ustrushona. Consequently, the Nurata mountain transit route played a significant role as a key link within Central Asia's Silk Road network.

Keywords. *Ustrushona, Nurata mountain range, transit trade route, Early Middle Ages, Amu Darya basin, Silk Road, economic exchange, caravanserais, pilgrims, cultural transmission*

Nurota tog' tizmasining janubiy-g'arbiy tarmog'ida, Nakrutsoy havzasida joylashgan qadimiy tarixga ega bo'lgan tarixiy qishloq bu – Nakrutdir. Nakurt deganda asosan baland tog'lar bilan o'ralgan, o'ziga xos go'zal maydonni egallagan soy va jilg'a bo'ylari ko'z oldimizga keladi. Bu qishloq bugungi kunda ma'muriy-hududiy jihatdan Samarqand viloyati Poyariq tumaniga qarashli. Nakurt qishlog'i Jizzax vohasiga chegaradosh hududlarda joylashgan bo'lib, uning tarixi bevosita Jizzax bilan bog'liq holda kechgan. Asosiy aholisi o'zbeklarning turkman urug'i vakillari bo'lib, fanda ularni umumiy bir nom bilan «turkman juzlari» yoki «Nurota turkmanlari» deb atashadi. Qishloq janub va janubi-sharq tomondan Ko'ltosin, shimol va shimoliy-g'arb tarafdan asosan tojik etnosi yashaydigan O'xum, Sintob, sharq tomondan Garasha, g'arb tomondan Quvkalla qishloqlari bilan chegaradosh.

Ma'lumki, ilk o'rta asrlarda Jizzax vohasini etnografik tadqiqotlari o'rganilar ekan, Jizzax vohasining ijtimoiy-siyosiy davri bo'yicha ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgani ko'zga tashlanadi. Biroq, bu masalaga chuqurroq yondashilsa, Jizzax vohasining etnomadaniy tarixi nisbatan kam o'rganilganligi ko'zga tashlanadi.

Tadqiqotning metodologiyasi analiz va sintez, tadrijiylik, tarixiy-qiyosiy, obyektivlik, davriy muammoviy va retrospektiv tahlil etishga asoslanadi. Bugungi kunda dunyo fanida tarixiy tadqiqotlar bo'yicha qo'lga kiritilayotgan yutuq va yangiliklardan, ayniqsa, ko'pchilik dunyo olimlari tomonidan qabul qilingan tadqiqot usullari va yondashuvlardan imkon qadar foydalanishga harakat qilindi. Tadqiqot yondashuvlariga asoslangan holda, umumjahon tarixiy jarayonlar doirasida, ilk o'rta asrlarda Jizzax vohasi tarixining kontseptual masalalari qarab chiqiladi. Tadqiqot vazifalarining amalga oshirilishi Markaziy Osiyo tarixida mavjud bo'lgan etnomadaniy tadqiqotlar voha tarixini tadqiq etishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Ilk o'rta asrlarda Jizzax vohasining tarixida muhim o'rin egallagan Nakrut qishlog'i hududlarida istiqomat qilgan aholi haqidagi ma'lumotlar bizgacha kam yetib kelgan. Chunki shu paytga qadar qishloq va unga tutash hududlarda maxsus

arxeologik izlanishlar olib borilmagan. Ammo, uning atrofidagi soy irmoqlarining toqqa tutash qismlaridagi o'ydim-chuqur bo'lib ketgan tepaliklar, tosh uylar, qadimgi qabrlarning qoldiqlari bu yerlarda tarixning uzoq davrlarida ota bobolarimiz, uzoq ajdodlarimiz yashaganligidan dalolatdir. Ilk o'rta asrlarda Nurota tog'i va uning atrofidagi qishloqlar qadimgi So'g'diyona va Ustrushona davlatining chegara hududlari bo'lib kelgan. O'z navbatida, tog' uzoq tarixiy davrlarda shimol va janub, Sharq va G'arbni bog'lovchi o'ziga xos baryer vazifasini o'tgan.

O'rta asrlarda ushbu mintaqalarda istiqomat qilgan aholi turk xoqonligi, arab xalifaligi, Chig'atoy ulusi, Temuriylar davlati tarkibida bo'lganlar. So'nggi o'rta asrlarning boshiga kelib, ya'ni XVI–XVII asrlarda Nakrut va unga tutash qishloqlar Shayboniylar, Ashtarxoniylar davlatlari qo'l ostida bo'lgan. XVIII asr o'rtalarida, ya'ni 1753-1756 yillarda Buxoro amirligi rasman o'z faoliyatini boshlagach, qishloq amirlikning Nurota bekligi tasarrufiga kiritiladi. Nurota tog'ining shimoliy va janubiy tarmog'idagi barcha qishloqlar Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashganligi bois, tog'ning shimoliy tarmog'ida yastanib yotgan bepoyon Qizilqum cho'llari bo'ylab harakatlangan savdo karvonlari toqqa tutash qishloqlardan oqib tushuvchi buloqlar va soylardan suv jamlab, yana o'z yo'llarida davom etganlar. Bunda Beshbarmoq ota, Rozmas, Bobomo'la cho'qqilaridan oqib tushuvchi Nakurutsoy, Garashasoy hamda O'xumsoy suvlari karvondagi savdogarlar va yo'lovchilar uchun hayot manbai bo'lganligi shubhasiz.

Qishloq tarixi haqidagi yozma manbalarning aksariyati XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning birinchi yarmiga taalluqli. Jumladan, XIX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran, chor Rossiyasi hukumatining alohida mutaxassislari o'lkani o'rganish uchun maxsus izlanishlar olib bora boshlaydilar. Bu jarayon XX asr 30 yillarigacha davom etgan. Ana shunday ekspeditsiyalar Nurota, Oqtog' va Qoratog', Zarafshon, Morguzar tog' tizmalari etaklarida joylashgan qishloqlarga ham uyushtiriladi. Tarixiy manbalar va hujjatlarda qayd etilishicha, ushbu mutaxassislarning aksariyati qishloqlarning topografik va geologik tuzilishi, joylashishi, aholining etnik va joylashuv xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni o'sha davrda Turkiston o'lkasida chop etilgan va mahalliy matbuotlarda taqdimnomalar, hisobotlar, statistik ma'lumotlar ko'rinishida yoritib borganlar.

Mavjud tarixiy manbalar va arxiv ma'lumotlarini o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, Nakrut qishlog'i o'z davrida uning atrofida joylashgan qishloqlarni birlashtirib turuvchi o'ziga xos etnokontakt hududi bo'lgan. Tadqiqotlar jarayonida Turkiston o'lkasini o'rganish uchun yuborilgan qator mutaxassislar, olimlar, harbiylarning hisobotlarida Nakrut qishlog'i haqida tarixiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar talaygina ekanligi aniqlandi. Jumladan, o'lka xalqlari tili, urf-odatlar hamda turmush tarzining

yetuk bilimdonlaridan biri A.D.Grebenkinning «Russkiy Turkestan» to'plamidagi «Uzbeki» maqolasida Nakrut qishlog'i haqida ilk tarixiy etnografik ma'lumotlar uchraydi. Unda muallif, qishloqda istiqomat qiluvchi turkman urug'iga mansub o'zbeklar haqida ayrim ma'lumotlarni berib o'tadi. Nurota vohasi aholisi turmush tarzi, madaniyati, aholining etnik tarkibi haqidagi ma'lumotlar qatorida rus mutaxassisi A.P.Xoroshxinning bergan ma'lumotlari anchagina salmoqli. U tog'ning har ikki tarmog'ida joylashgan nayman, saroy, turkman, burqut, mang'it kabi o'zbek urug'lari haqida yozar ekan, o'zbek-turkmanlar haqida ham anchagina ma'lumotlarni berib o'tadi. Xususan, 1871-yilda Toshkentda chop etilgan markaziy nashrlardan biri «Turkestanskije vedomosti» gazetasida «Istoriko-etnograficheskie etyudy. Narody Sredney Azii» maqolasida aynan o'zbek-turkmanlarning etnogenezi va boshqa ayrim etnik xususiyatlariga urg'u berilib, birinchi marotaba Nakrut qishlog'i haqida tarixiy etnografik qaydlar keltirilgan.

Nurota tog' tizmasi atrofida istiqomat qiluvchi aholi etnik tarkibi haqidagi ma'lumotlar XIX asr oxiri – XX asr 20-yillariga doir ba'zi statistik ma'lumotlarda ham uchraydi. Ular qatorida Nakrut qishlog'i va unga tutash mintaqalarda istiqomat qiluvchi o'zbek-turkmanlar haqidagi ma'lumotlar ancha e'tiborga molik. Jumladan, XX asrning 20-30-yillaridan boshlab Turkiston Xalq komissarligi tashabbusi bilan Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on, Jizzax uездlariga maxsus etnografik ekspeditsiyalar uyushtirilgan. Bunday ekspeditsiyalar M.S.Andreev boshchiligidagi Nurota tog' tizmasi atrofidagi aholi punktlarida va unga tutash Qizilqum cho'liga amalga oshirilgan. I.I.Zarubin boshchiligidagi esa Jizzax uyezdining Forish, Sintob, Qoratosh, Nakrut, Bog'don, To'sin volostlariga uyushtirilib, anchagina statistik hamda etnografik ma'lumotlar to'plangan.

Ma'lumki, 1867-yilda o'lkada Turkiston general-gubernatorligi tashkil etiladi. Masalaning e'tiborga molik jihati shundaki, Nakrutning Nurota, Morguzar, Qo'ytosh, Oqtog' va Qoratog' oralig'idagi aholi punktlarini bog'lab turuvchi yo'l chorrahasida joylashganligi inobatga olinib, shu yili Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on uyezdida Nakrut volosti tuziladi. Tez orada u alohida strategik markaz sifatida ish boshlaydi. 1886-yilda «Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risida»gi Nizomga muvofiq, uning Kattaqo'rg'ondan uzoqligi inobatga olinib, «Turkiston o'lkasi statistik boshqarmasi» qaroriga asosan Jizzax uyezdida tarkibiga o'tkaziladi. O'sha paytga oid arxiv ma'lumotlarida keltirilishicha, u Sintob, Bog'don, Urdo'n, To'sin, Yangiqo'rg'on volostlari bilan chegaradosh bo'lgan.

Shu tariqa, o'z tarkibida 40 ga yaqin qishloqlarni birlashtirgan Nakrut alohida volost sifatida 1920 yilgacha faoliyat ko'rsatgan. 1904-1905 yillardagi «Samarqand viloyati aholi punktlari» (Населенные пункты Самаркандской области)

ma'lumotlariga ko'ra, Jizzax uyezdi tarkibida Nakrut, Bog'don, Sintob, Savruk, Qizilqum, Otaqo'rg'on, Sartqo'rg'on volostlari bo'lgan. To'sin volosti Kattaqo'rg'on uyezdi tarkibida bo'lsa, Nakrut esa Jizzax uyezdidagi yirik volostlardan biri hisoblangan. Unga Ilonli, Qoraabdal, Garasha, Sag'ishmon va Urdo'n qishloq jamoalari (selskye obshchiny) birlashtirilgan. Hujjatlarda qayd etilishicha, Nakrut volostida o'sha paytda 880 ta hovli va 1073 ta o'tovlar bo'lgan. Jami aholi 14 ming 964 kishi bo'lib, shundan erkaklar 8158 ta, ayollar 6806 tani tashkil etgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Nakrut volostiga jami 36 qishloq qarashli bo'lgan.

1926-yilda O'zSSR Xalq komissarligi Kengashi qaroriga muvofiq O'zbekistonda qaytadan rayonlashtirish tadbirlari o'tkaziladi. Ushbu qarorga asosan, Samarqand viloyati tarkibida Poyariq tumani tuziladi. O'lkada yangicha sovet ma'muriy tuzilmalarining tashkil topishi munosabati bilan, Nakrutning volost sifatidagi faoliyati ham tugatiladi. Shu yildan e'tiboran, Nakrutning Jizzaxdan uzoqligi inobatga olinib, Poyariq tumani tarkibida Nakrut qishloq kengashi (s/o Nakrut) tuziladi.

1920-yilgi aholi ro'yxati ma'lumotlariga ko'ra, Nurota tumanida 8000 dan oshiq o'zbek-turkmanlar istiqomat qilgan bo'lsa, Samarqand viloyati bo'yicha 20 mingdan ortiq turkman urug'iga mansub o'zbeklar ro'yxatga olingan. Nakrut va uning atroflarida o'zbek-turkmanlar asosan utrli urug' va to'plarga bo'linib, qarindoshlardan iborat bo'lgan alohida qishloq va mahallalarda istiqomat qilishgan. O'zbek-turkmanlar aksariyat qishloqlarda g'uj (kompakt) holda yashab kelganlar. XX asr o'rtalariga kelib, to'la o'troqlik tarziga o'tgan o'zbek-turkmanlar, xo'jalikning ushbu turlari bilan shug'ullangan vohaning boshqa etnoslari va etnik guruhlar bilan mushtarak etnomadaniy aloqada bo'lib kelganlar. Zero, ushbu xalqlarning mintaqa etnomadaniy muhitga to'la moslashishlari uchun, ularning ko'p yillar davomida bir hududda yashab, o'zaro xo'jalik aloqada bo'lishlari muhim omil hisoblangan.

Bu davrda turkmanlar garasha xo'jalari bilan jadal madaniy va xo'jalik-savdo aloqalari o'rnatganlar. Chorvador turkmanlar o'z qoramol, tuya, yilqilarini Garasha xo'jalariга ayriboshlash yoki naqd pulga sotish uchun Garashaga olib kelganlar va mahalliy bozordan xo'l meva, tamaki, hunarmandchilik mahsulotlarini sotib olganliklari to'g'risida Nurota tarixining jonkuyar izlanuvchisi N.Tolipov o'z tadqiqotlarida ko'plab ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Shuningdek, qishloq oqsoqollarining og'zaki axborotiga qaraganda, Garasha qishlog'ining Qo'rg'on hududidagi bozorda XX asr 50-60-yillarigacha doimiy qoramol, ot, tuya savdolari bo'lib turgan. Asosan, xo'jalikning turli ko'rinishlari Nakrut va uning atroflaridagi qishloqlarda mavjud bo'lib, aholi buning natijasida turli etnos va subetnoslar o'rtasida o'ziga xos madaniy aloqalarni yuzaga keltirgan.

Nurota tog' yon bag'irlaridagi qishloqlarda xo'jalikning ikki turi: vohaning sug'orma dehqonchiligi va dasht yaylov chorvachiligi o'zaro bir-birini to'ldirib, uyg'unlashib borishi natijasida etnik guruhlararo (turkman, saroy, xo'ja, nayman, mang'it va boshqalar o'rtasida) o'zaro iqtisodiy, madaniy aloqalarni yuzaga keltirgan. Bu tog' atroflarida o'ziga xos xo'jalik-madaniy tipni shakllanishiga turtki bo'lgan.

Ilk o'rta asrlarda Jizzax vohasining davlatchiligini tahlil qilish Markaziy Osiyo xalqlari davlatchiligi tarixi, shu jumladan, mazkur mintaqaning davlatchilik an'analari, aholi turmush tarzi haqida muayyan xulosalar qilish imkonini beradi. Avvalo, shuni ta'kidlash joizki, Jizzax vohasining davlat tuzumi Markaziy Osiyo va unga qo'shni hududlarda mavjud bo'lgan davlat uyushmalarining davlatchilik an'analari asosida shakllanishi barobarida, ularni yanada boyitdi va mintaqadagi keyingi siyosiy uyushmalar uchun tamal toshi bo'lib xizmat qildi.

Foydanilgan adabiyotlar

1) Абдушукурова, И. К. (2018). Роль и место семьи в формировании патриотизма и гражданской позиции у молодежи. *Вопросы науки и образования*, (8 (20)), 184-185.

2) Абдушукурова, И. К., & Самадов, Б. К. (2016). О мерах по борьбе против торговли людьми. *Научный журнал*, (6 (7)), 140-141.

3) Абдушукурова, И. К. (2017). Воспитание студентов в аспекте молодежной политики. *Достижения науки и образования*, (6 (19)), 77-78.

4) Абдушукурова, И. К., & Самадов, Б. К. Преемственность поколений и воспитание молодёжи.

5) Абдушукурова, И. К., & Самадов, Б. К. (2021). Преемственность поколений и воспитание молодёжи. *Вестник науки и образования*, (10-3 (113)), 83-85.

6) Абдушукурова, И. (2022). НОВЫЕ ТРЕНДЫ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 1235-1247.

7) Самадов, Б. К., & Абдушукурова, И. К. (2021). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ТРИЗ В ПРЕПОДАВАНИИ ИСТОРИИ. *Проблемы науки*, (6 (65)), 85-87.

8) Абдушукурова, И. К. (2020). Противодействие торговле женщинами и методы профилактики. *Вестник науки и образования*, (10-3 (88)), 39-42.

9) Абдушукурова, И. К. (2017). Применение инновационных технологий в преподавании социологии. *Проблемы педагогики*, (6 (29)), 12-13.

- 10) Абдушукурова, И. К., & Темирова, Н. Э. (2014). Борьба против торговли людьми в Узбекистане. *Молодой ученый*, (4), 466-468.
- 11) Kudratov, D. (2023). ABOUT THE SHRINE OF KHOJAMUSKENT FATHER IN JIZZAH OASIS. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(12), 73-78.
- 12) Қудратов, Д. (2022). IX-XIV АСРНИНГ ЎРТАЛАРИ ШАҲАРЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ. *RESEARCH AND EDUCATION*, 236.
- 13) Qudratov, D. (2021). PECULIARITIES OF THE FIRST URBANIZATION PROCESSES IN THE FERGANA VALLEY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 2(12), 13-16.
- 14) Маматов, Ш. М., & Алибеков, У. Ю. (2019). Повышение благосостояния сельского населения Узбекистана в свете Стратегии действий. *Наука, техника и образование*, (5 (58)), 63-65.
- 15) Yuldashevich, A. U., & Musurmonkulovich, M. S. From the Ethnic History of the Population of Ustrushana. *JournalNX*, 7(04), 37-41.
- 16) Алибеков, У. Ю., & Маматов, Ш. М. (2021). О РОДЕ «БАЯУТ» В СОСТАВЕ УЗБЕКСКОГО НАРОДА. In *МИР ЕВРАЗИИ: ОТ ДРЕВНОСТИ К СОВРЕМЕННОСТИ* (pp. 153-159).
- 17) Мирзалиев, У. Б., & Маматов, Ш. М. (2012). ТРУДОВАЯ МИГРАЦИЯ И ПРОБЛЕМА ЗАНЯТОСТИ СЕЛЬСКОГО НАСЕЛЕНИЯ. In *ИССЛЕДОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА ОБЩЕСТВА И ФОРМИРОВАНИЕ НАПРАВЛЕНИЙ ЕГО СТРАТЕГИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ* (pp. 227-228).
- 18) Алибеков, У., & Маматов, Ш. ҚАДИМИЙ МИРЗАЧЎЛДА ШАҲАРСОЗЛИК МАДАНИЯТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИ.
- 19) Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). YOZUV ISLOHOTI VA DINIY MEROSGA MUNOSABAT: INGLIZ OLIMLARINING YONDASHUVI. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 28-41.
- 20) Davron O'g'li, A. D. (2025). AFSHINLAR SULOLASINING TASHKIL TOPISHI VA FAOLIYATI. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 600-605.
- 21) Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). XX ASRNING 20-30 YILLARIDA INGLIZ MANBALARIDA O 'ZBEKISTON MADANIYATING ASOSIY YO 'NALISHLARI VA MUOMMALARI DAVR

TARIKSHUNOSLIGIDA. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 90-101.

22) Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). INGLIZ MANBALARIDA 1927–1938 YILLARDA O'ZBEKISTON MADANIY MANZARALARI: REPORTAJLAR, JURNALLAR VA ARXIV HUJJATLARI TAHLILI. *YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 11-27.

23) Davron O'g'li, A. D. (2025). ILK O'RTA ASRLAR DAVRI YOZMA VA ARXEOLGIK MANBALARIDA USTRUSHONA. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 606-612.

24) Davron o'g'li, A. D. (2025). O'RTA OSIYO KO'CHMANCHI CHORVADORLARI TARIXINING O'RGANILISHI. *YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(8), 100-113.

25) Davron O'g'li, A. D. (2025). ILK O'RTA ASRLARDA USTRUSHONADAGI SIYOSIY HOLAT. *INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM*, 6(51), 613-619.

26) Dilshod, A., Abdumatov, A., & Ismoil, R. (2025). FORMATION AND DEVELOPMENT OF HISTORICAL GEOGRAPHY GULISTAN STATE UNIVERSITY. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 47-53.

27) Ismoil, R., Dilshod, A., & Zilola, A. (2025). O'ZBEKISTON TASHQI SIYOSATIDA TINCHLIKPARVARLIK TAMOIYLLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 203-214.

28) Zilola, A., Ismoil, R., & Dilshod, A. (2025). MISRDAGI SUV OSTI ARXEOLGIYASI TADQIQOTLARIDAN. *TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 192-202.

29) Nematov, R. A., & Almanov's, Q. O. (2022). The role of historical sources in the study of the history of the turkish empire. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 2(10), 25-31.

30) Неъматов, Р. (2023). Илк ўрта асрлар Хоразм тарихшунослигининг бугунги ҳолати. *История и культура центральной Азии*, 1(1), 122-125.

31) Неъматов, Р. (2023). Хоразм Афригийлар сулоласи–Турк хоқонлиги сиёсий алоқалари. *Journal of Fundamental Studies*, 1(7), 16-23.

32) Галиев, С., Абдуматов, А., & Неъматов, Р. (2025). ГЕРОИ-ТАТАРЫ УЗБЕКИСТАНА, УЧАСТВОВАВШИЕ ВО ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ. *Наука и инновации в системе образования*, 4(4), 35-39.

33) OBID, N., ULUGBEK, M., SHAROF, M., & RUSTAM, N. (2022). SOME CONSIDERATIONS OF THE COUNTRY LIFESTYLE DURING THE

PERIOD OF PUBLIC COLLECTIVIZATION. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(1), 86-94.

34) Nazarov, O. R., & Nematov, R. A. O. (2020). FROM THE HISTORY OF UZBEKISTAN'S COOPERATION WITH UNESCO. *Bulletin of Gulistan State University*, 2020(4), 45-49.

35) Неъматов, Р. (2023). ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМДА КЕЧГАН ЭТНОМАДАНИЙ ЖАРАЁНЛАР. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(6), 14-23.

36) Ne'matov, R. (2023). ILK O 'RTA ASRLARDA XORAZM TARIKSHUNOSLIGINING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. *Interpretation and researches*, 1, 21.

37) Неъматов, Р. А. У. (2020). Интеллектуальное и культурное наследие узбекского народа. *Наука, образование и культура*, (4 (48)), 85-87.

38) Nematov, R. A. (2025). Early medieval ethnic processes in Khorezm oasis in archaeological and written sources. *American Journal of Philological Sciences*, 5(02), 10-16.

39) Nematov, R. (2024). REFLECTION OF THE HISTORY OF KHOREZM IN THE EARLY MIDDLE AGES IN WRITTEN SOURCES. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 3(12), 72-78.

40) Неъматов, Р. А. Ў. (2024). ИЛК ЎРТА АСРЛАРДА ХОРАЗМ ТАРИХИНИНГ ЁЗМА МАНБАЛАРДА АКС ЭТИШИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 377-382.

41) BOSIMOVICH, T., & ALISHER, A. (2022). FROM THE HISTORY OF THE ANCIENT DEFENSE WALLS. *International Journal of Intellectual Cultural Heritage*, 2(5), 61-65.

42) Назаров, О., & Абдуматов, А. (2024). ҲАДИС ИЛМИ РИВОЖИДАГИ ОЛТИН ДАВР. *Ilm-fan va ta'lim*, (3 (18)), 151, 312.

43) Yuldashevich, A. U., Akhmatkulovich, A. A., & Ugli, R. I. K. (2024). STRUGGLE FOR THE NEWLY FORMED ORENBURG-TASHKENT CARAVAN TRADE ROUTE OF THE BUKHARA EMIRATE AND THE KOKHAN KHANATE AT THE BEGINNING OF THE 19TH CENTURY. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF HISTORY*, 5(12), 16-21.

44) Абдуматов, А. А. (2024). АКАДЕМИК АБДУЛАҲАД МУҲАММАДЖОНОВ ИЛМИЙ МЕЪРОСИДА ТАРИХИЙ ТАФАККУР МАСАЛАСИ. *Science and innovation*, 3(Special Issue 6), 426-431.

- 45) Bosimovich, T. B., & Jonibek, R. (2022). FROM THE HISTORY OF EARLY MEDIEVAL POTTERY CRAFT. *World Bulletin of Social Sciences*, 16, 86-87.
- 46) Vildanovich, G. S., Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). SOTSIOLOGIK TARIXDA KO'CHMANCHILIK FENOMENINING O'RGANILISHI: YONDASHUVLAR, MUAMMOLAR VA BAHOLASH MEZONLARI. In *International Conference on Educational Discoveries and Humanities* (pp. 78-81).
- 47) Komil o'g, M. R. S. (2025, May). TURK XOQONLIGI: DASTLABKI DAVLATLILIK SHAKLLARI VA ULARNING O'RTA OSIYO TARIXIDAGI ROLI. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 343-349).
- 48) Абдуматов–Исследователь, А., & Маъруфов, Ш. (2025, May). ТУРЕЦКАЯ ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА В ОТНОШЕНИИ ТЮРКОЯЗЫЧНЫХ ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ—ЧЛЕНОВ ЕАЭС (1991–2015 ГГ.). In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 293-296).
- 49) Komil o'g, M. R. S., Axmatkulovich, A. A., & Vildanovich, G. S. (2025, May). XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI VA BAYTUL-HIKMA OLIMLARI O'RTASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK. In *International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (pp. 305-311).
- 50) Axmatkulovich, A. A., & Xoshimjon o'g'li, R. I. (2025, May). MIRZACHO'LNI O'ZLASHTIRISH VA KO'CHIRISH SIYOSATI: TARIXIY-TAHLILIY YONDASHUV. In *International Educators Conference* (pp. 207-212).
- 51) Galiyev, S. (2024, September). O'ZBEKISTONDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALAR MAXSUS TA'LIMI. In *CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD* (Vol. 1, No. 8, pp. 110-114).
- 52) Galiyev, S. (2024). O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIM ASOSLARINING O'RNATILISHI VA RIVOJLANISHI. *Journal of science-innovative research in Uzbekistan*, 2(9), 70-74.
- 53) Hakimova, S., & Galiyev, S. (2025). INGLIZ PARLAMENTING TARIXIY O'ZGARISHLARI. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 157-163.
- 54) Шадманкулова, М. М. (2018). СОЧЕТАНИЕ ЛИБЕРАЛЬНЫХ-ДЕМОКРАТИЧЕСКИХ ИДЕЙ В СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКИСТАНА. *Социосфера*, (4), 226-232.

- 55) Шодмонкулова, М. М. (2018). ЛИБЕРАЛИЗМ: ИСТОРИЯ И СОВРЕМЕННОСТЬ. *Наука и образование: проблемы, идеи, инновации*, (4), 26-30.
- 56) Шодмонкулова, М. (2025). ЛИБЕРАЛ-ДЕМОКРАТИК ҒОЯЛАРНИНГ ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ТАРАҚҚИЁТ СТРАТЕГИЯСИНИ АМАЛГА ОШИРИШДАГИ ЎРНИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 176-181.
- 57) Шодмонкулова, М. (2025). ҒАРБ ЛИБЕРАЛ-ДЕМОКРАТИК ҒОЯЛАРИНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 164-169.
- 58) Шодмонкулова, М. (2025). Либерал-Демократик Ғояларнинг Тараққиёт Стратегиясини Амалга Оширишдаги Ўрни. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 170-175.
- 59) Шодмонкулова, М. (2025). ЎРТА СИНФ-МУЛҚДОРЛАР СИНФИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 152-156.
- 60) Шодмонкулова, М. М. (2025). ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДА СИЁСИЙ ЛИБЕРАЛИЗМНИНГ АҲАМИЯТИ. *FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES*, 4(38), 354-357.
- 61) Mavlyanov, U. N. (2020). Problems of Ontology in the Heritage of Ali Safi. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 7(7), 540-545.
- 62) Мавлянов, У. Н. (2020). ПРОБЛЕМЫ ОНТОЛОГИИ В НАСЛЕДИИ АЛИ САФИ. *Вестник Российского философского общества*, (1-2), 200-209.
- 63) Mavlyanov, U. N. (2021). FAHRUDDIN ALI SAFI'S TEACHING ABOUT BEING. *Bulletin of Gulistan State University*, 2021(2), 61-67.
- 64) Mavlyanov, U. (2022). ABOUT "THE ART ACADEMY OF BAYSUNKUR". *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(06), 133-138.
- 65) Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). ФРИДРИХ НИЦШЕ ВА МАДАНИЯТНИНГ ИРОДА АСОСИДАГИ ТАЛҚИНИ. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(5), 91-98.
- 66) Мавлянов, У. Н., Райимжонов, И. Х., & Абдуалимова, З. М. (2025). СЛАВЯН ЦИВИЛИЗАЦИЯСИ ВА УНИНГ КЕЛАЖАГИ: ДАНИЛЕВСКИЙ БАШОРАТИ. *Современные подходы и новые исследования в современной науке*, 4(5), 82-90.

- 67) Mavlyanov, U. N. (2023). Issues of Knowledge in the Legacy of Ali Safi. *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*, 3(07), 41-43.
- 68) Мавлянов, У. (2025). АЛЛОМАГА НАВОИЙ ТАЪРИФИ. *Теоретические аспекты становления педагогических наук*, 4(7), 142-146.
- 69) Мавлянов, У. Н., & Тангирбердиев, Ш. (2025). АЛИ САФИЙ ҲАЁТИ ВА МЕРОСИ ҲАҚИДА. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 78-84.
- 70) Мавлянов, У. Н. (2025). АЛЛОМАНИНГ МЕРОСИДА БОРЛИҚ ВА БИЛИШ МАСАЛАЛАРИНИНГ ҚЎЙИЛИШИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 73-77.
- 71) Мавлянов, У. Н. (2025). БУЮК СИЙМОЛАР БЕШИГИ. *Решение социальных проблем в управлении и экономике*, 4(4), 68-72.
- 72) Исроилов, М. Я. (2019). Образование и его развитие в Узбекистане. *Academy*, (5 (44)), 48-49.
- 73) Исроилов, М. Я. (2015). Влияние использования Интернет-ресурсов на повышение эффективности обучения истории. *Наука, техника и образование*, (5 (11)), 147-148.
- 74) Исроилов, М. (2024). УЧИНЧИ РЕНЕССАНС: ТАРИХИЙ ПОЙДЕВОР ВА ИСТИҚБОЛ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 419-423.
- 75) Исроилов, М. Я. (2016). РОЛЬ РАЗЛИЧНЫХ ТРАДИЦИЙ, ОБРЯДОВ И ЦЕРЕМОНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ПОЛОМ И ВОЗРАСТОМ, В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ И ЭТНОГРАФИИ УЗБЕКОВ. In *Люди, культуры, пространство: социокультурная динамика мира Евразии* (pp. 231-235).
- 76) Назаров, О., & Қосимова, Э. (2024). ҚЎҚОН ХОНЛИГИДА ТАЪЛИМ ДАРГОҲЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ОИД АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР. *Talqin va tadqiqotlar*, 2(3), 40.